



YOSH OILALARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUVIDA ER-XOTIN ROLLARI TAQSIMOTINING TA'SIRI

Ermakboyeva Shahodat Rustamovna

Qo'rg'ontepa tumani 18-maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda yosh oilalarning psixologik moslashuv jarayonlari va unga er-xotin o'rtasidagi an'anaviy hamda egalitar rollar taqsimotining ta'sir tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda yosh oilalarda rollar bo'yicha kutishlar va real hayotdagi majburiyatlarning mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan psixologik nizolar, ularning ajrimlar xavfiga ta'siri o'rganilgan. Oilaviy moslashuvni ta'minlashda rolli moslashuvchanlikning ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: yosh oila, psixologik moslashuv, rollar taqsimoti, egalitar oila, an'anaviy oila, oilaviy nizolar, rolli kutishlar.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini va shaxs shakllanadigan dastlabki ijtimoiy muhitdir. Zamonaviy globallasuv va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida oila instituti, xususan, yosh oilalarning shakllanishi va barqarorligi masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ajrimlarning sezilarli qismi oilaviy hayotning dastlabki 3-5 yilligiga, ya'ni psixologik moslashuv davriga to'g'ri keladi. Yosh oilalarning psixologik moslashuv - bu er va xotinning bir-birining shaxsiy xususiyatlariga, odatlariga, qadriyatlar tizimiga hamda yangi ijtimoiy maqomga ko'nikish jarayonidir. Bu jarayonda eng ko'p nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradigan omillardan biri - er-xotin rollarining taqsimlanishidir. An'anaviy oilaviy modellardan teng huquqli modelga o'tish davrida yosh er-xotinlar o'rtasida rolli kutishlar va reallik o'rtasidagi disbalans oilaviy barqarorlikka bevosita tahdid soladi.

Yosh oilalarning psixologik moslashuvi fenomeni va unda er-xotin rollari taqsimotining determinantlik xususiyatlarini o'rganish majmuaviy hamda tizimli



yondashuvni talab etadi. Oilaviy tizimning dinamik tabiatini inobatga olgan holda, ushbu tadqiqotning nazariy-metodologik asosini mahalliy va xorijlik psixologlarning oila tizimlari, ijtimoiy rollar va shaxslararo munosabatlar konsepsiyalari tashkil etadi. Yosh oilalarda er-xotin rollari taqsimotining psixologik moslashuv jarayonlariga ta'sirini kompleks o'rganish maqsadida, tadqiqotning konseptual negizi sifatida zamonaviy psixologiya va sotsiologiya fanlarining quyidagi fundamental ilmiy yondashuvlari umumiyashtirildi va tizimlashtirildi.

Tizimli oilaviy yondashuv (M. Bouen, S. Minuxin). Ushbu yondashuv doirasida oila alohida individlarning oddiy yig'indisi sifatida emas, balki ichki qonuniyatlarga ega bo'lgan yaxlit, dinamik va o'z-o'zi Server boshqaruvchi psixologik tizim sifatida tadqiq etiladi. Tizimli yondashuv paradigmasiga ko'ra, er-xotin rollarining taqsimlanishi va funksiyalarning bajarilishi oilaviy tizimning barqarorligini ta'minlovchi yoki uni tizimli inqirozga olib keluvchi bosh tarkibiy determinant hisoblanadi. Yosh oilalarda rolli munosabatlarning transformatsiyasi oilaning adaptatsion imkoniyatlarini belgilab beradi.

Ijtimoiy rollar va kognitiv yo'nalish nazariyalari (T. Parsons, K. Levin). Mazkur nazariy maktab konsepsiyalariga asosan, oiladagi rollar muayyan ijtimoiy-statusli mavqega ega bo'lgan shaxsdan kutiladigan xulq-atvor va majburiyatlarning standartlashtirilgan namunalari. Bizning tadqiqotimizda er va xotinning rolli kutishlari hamda ularning real hayotdagi rolli xulq-atvori o'rtasidagi nomutanosiblik ko'rib chiqiladi. Ushbu ikki qutb o'rtasidagi tafovut natijasida yuzaga keladigan kognitiv dissonans yosh oilalarda psixologik dezaadaptatsiya va surunkali nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy psixologik omil sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Psixologik moslashuv va dispozitsion konsepsiyalar (A.N. Volkova, E.G. Eydemiller). Ushbu konseptual yo'nalishga ko'ra, oilaviy moslashuv - bu er-xotinning individual-shaxsiy ehtiyojlari bilan mikroijtimoiy muhit talablari o'rtasidagi dinamik muvozanatni ta'minlash jarayonidir. Mazkur jarayonda rolli konsensus, ya'ni er va xotin o'rtasida rollar taqsimotining o'zaro mos kelishi, tan



olinishi va qabul qilinishi oilaviy hayotdan umumiy qoniqish hosil qilishning hamda nikoh barqarorligining bosh mezonini va psixologik kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Yosh oilalarning psixologik moslashuv xususiyatlari va unga er-xotin o'rtasidagi rollar taqsimotining ta'sirini tizimli va konseptual jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi.

1. Rolli kelishuv - adaptatsiyaning bosh omili. Yosh oilalarning psixologik moslashuvi muvaffaqiyatli kechishi er-xotin rollarining qat'iy an'anaviy yoki demokratik modelga tegishli ekanligi bilan emas, balki ularning ushbu majburiyatlar taqsimotida o'zaro rolli kelishuvga erishganliklari bilan belgilanadi. Rollarning o'zaro mos kelishi oilaviy muhit barqarorligini ta'minlovchi integral ko'rsatkichdir.

2. Kognitiv dissonans va dezaadaptatsiya munosabati. Er va xotinning nikohgacha bo'lgan rolli kutishlari bilan nikohdan keyingi real rolli xulq-atvori o'rtasidagi tafovut oilada kuchli kognitiv dissonansni keltirib chiqaradi. Ushbu ziddiyot yosh oilalarda surunkali nizolarni intensivlashtiruvchi va psixologik dezaadaptatsiyani yuzaga keltiruvchi birlamchi psixologik determinant hisoblanadi.

3. Rolli moslashuvchanlik ahamiyati. Oilaviy tizimning ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashuvchanligi bevosita er-xotinning rolli fleksibelligiga bog'liq. Rollar tizimi rigid bo'lgan oilalarga nisbatan, vaziyatga qarab majburiyatlarni konstruktiv bo'lisha oladigan oilalarda jipslik darajasi yuqori va ajrim xavfi sezilarli darajada past bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Adler. Praktika i teoriya individualnoy psixologii. – Moskva, 1995. – 117–128 b.
2. G. M. Andreyeva. Sotsialnaya psixologiya. – Moskva: Aspekt-Press, 2003. – 96–113 b.
3. Andreyeva A.D., Voxmyanina T.V., Voronova A.P., Chutkina N.I. Rukovodstvo prakticheskogo psixologa. – Moskva, 1995.



4. А. Ya. Antsupov, A. I. Shipilov. Konfliktologiya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2008. – 490 b.
5. М. К. Akimova. Vvedenie v psixodiagnostiku. – Moskva: Akademiya, 2000. – 234 b.
6. R. T. Bayyard. Vash bespokoyniy podrostok. – Moskva: Akademicheskij proekt, 2008. – 207 b.